

INSON ORGANIZMINI ZULUK BILAN DAVOLASHNING KLINIKA VA
TABOBATDAGI AHAMIYATISharipova Farida Salimdjanovna*Toshkent tibbiyot akademiyasi Termiz filiali**Tibbiy biologiya va gistologiya kafedrasida katta o'qituvchisi*

Eshqovatov Muhammadqodir Almaxammad o'g'li

Karimov Abdurasul Otamurodovich

O'rinova Dilafruz Shuxradjonovna

Farxodova Munisa Baxriddinovna

Toshkent Tibbiyot Akademiyasi Termiz filiali davolash fakulteti talabasi

Annotatsiya: *Girudoterapiya “zuluklar bilan davolash” asrlar osha bizga yetib kelgan davolash ushbu. Tibbiy zuluklar farmakologiyaga kiritilgan va dorivor moddaga tenglashtirilgan fauna/hayvonot olami ining yagona vakilidir. Girudoterapiya tarixi ikki ming yildan ko'proq vaqtni o'z ichiga oladi. Qadimgi Yunoniston, Hindiston, Misr, Xitoyda zuluklar bilan davolash mashhur bo'lgan. Misr fir'avnlar qabri devorlarida zuluklar tasvirlari paydo bo'la boshlashi. Ushbu maqolani yozishdan maqsad :Girudoterapiya davolash usulini keng miqyosda yoritib berish.*

Kalit so'zlar: *girudoterapiya tarixi, inson tanasiga zuluklarni shifobaxsh ta'siri, ko'rsatmalar, zuluk bilan davolash, foyda va zararlari, muolaja qanday o'tkaziladi.*

Asosiy qism. Girudoterapiya [lotincha hirudo-“zulik”terapiya yunoncha “davolash degan ma'noni bildiradi. Ushbu fizioterapiyaviy muolaja ,muqobil tibbiyotga oid sanaladi .Bunday zuluklar kichik sinf chuvalchanglarga oid yagona tur hisoblanadi,qolganlari bunday shifobaxsh ta'sir ko'rsatmaydi.Girudoterapiya tarixi ikki ming yildan ko'proq vaqtni o'z ichiga oladi.Ushbu muolaja XVIII asr oxiri XIX asr boshlarida keng mashhurlikka erishdi.Bu usul yordamida deyarli barcha kasalliklarni davolana boshladi. Ushbu davrda zuluklar sanoat miqyosida yetishtirilib,mamlakatlar o'rtasida eksport qilina boshlaydi. Barcha dorixonalarda zuluklar sotila boshlaydi .Tarixga nazar solsak, Arxeologlar qazish ishlari davomida eski kutubxona qoldiqlaridan topilgan materiallarda zuluklar haqida ko'plab ma'lumotlar topilgan.Qo'l yozmalarda qayd etilishicha ,shifokorlar zuluklar bilan davolash ishlari natijasida ajoyib natijalarga erishganligi haqida ma'lumotlar berilgan.O'rta asrlarda topilgan girudoterapiya semizlikka qarshi yordam berishi aniqlangan, o'sha vaqtlarda ko'p mamlakatlarda uchraydigan ortiqcha vazn muammosi deyarli eng muhim muammolardan biri bo'lgan. Qayd etilishicha zuluklar bilan davolash natijasida ajoyib natijalarga erishgan. Odamlar 10-12kg gacha vazn tashlashgan va salomatliklarini yaxshilaganligini ta'kidlashgan. Misr davlatida ham zuluk bilan davolash mashhur bo'lgan, ko'plab kasalliklarga zuluklar orqali davolash topilgan. Afsonalarga ko'ra bepushtlikdan aziyat chekkan qirolicha kleopatra zuluklarningg sehirlil ta'siri tufayli Yuliy Sezardan homilador bo'la olgan. Shundan so'ng Misr fir'avnlar qabri devorlarida zuluklar tasvirlari paydo bo'la boshlagan. Zuluklar halqali chuvalchanglar tipining sinifiga mansub bo'lib, ularning 400 ga yaqin turi bo'lib,chuchuk suv havzalari va dengizlarda tarqalgan.Tanasining orqa va qorin tomonlari yassilashgan ba'zan silindirsimon shaklda ham

bo'ladi. Zuluklar turlaridan ikkita turi tibbiyotda ishlatiladi. Tibbiy zuluklarni ming dardga davo deganlarida ularning xususiyatlarini oshirib emas balki bu ajoyib sehirlil mavjudodlarni xususiyatlarini kamaytirib aytishadi. Tibbiy zuluklar boshchasida 5juft ko'z, og'zida esa 3ta xitin tishli jag'I bor. Ular yordamida zuluk terini 1,5-2 mm chuqurlikda tishlab 5-15ml xajmda qon so'riydi. Zuluklar aslida juda sezgir va begona hidlarga toqat qila olmaydi. Agar terida sovun, gel, Shampun, parfyumeriya mahsulotlarining hidi kelsa zuluklarning teriga yopishishi va qon so'rishida qiynchiliklar bo'lishi mumkin. Shuning uchun teriga zuluk qo'yishdan oldin teridagi hid va hidli mahsulotlarni, bolalar sovunni yoki kir sovun bilan yuvib tashlash birinchi navbatda teridagi hidlarni yo'qotish hamda bakteriyalarni o'ldirishga yordam beradi. Tibbiy zuluklarni inson tanasiga birlashtirishda o'ziga xos qoidalari bor. Dastlab zuluk qo'yiladigan joyni belgilashda kasallik turiga, yallig'lanish darajasiga bemorni ahvoliga e'tibor beriladi. Muolaja kasallik turiga qarab 25-30 daqiqadan bir soatgacha davom etadi. Zuluk teriga qo'yilganda dastlab bilinar bilinmas achishish holati seziladi. Bu paytda zulukdan girudin moddasi ajralib chiqib, qonga tushadi. Zuluk ajratib chiqaradigan girudin tarkibida 100 ga yaqin biologik faol moddalar organizimning normal faoliyatiga ijobiy ta'sir etadi. Bu tabiiy moddalarga girudin, gialuronidaza, destabilaza, eglinlar, antibiotiklar va o'g'riqsizlantiruvchi moddalar kiradi. Destabilaza fermenti qon tomirlaridagi tromblarni parchalash va so'rilishiga sabab bo'luvchi modda hisoblanadi. Gialuronidaza chandiqli kasalliklarni so'rilishidan faol ishtirok etadi. Eglinlar to'qimalarini jarahotlanishi va yallig'lanishini kamaytirish xususiyatiga ega ferment hisoblanadi. Zuluklarni vaqtdan oldin olish holatida zuluklarni yulib olish yoki kesib tashlash mumkin emas. Aks holda zulukni bosh qismi qolib ketib yana qon so'rishbi etishi orqali bemorning ahvoli yanada yomonlashishiga sabab bo'ladi. Tibbiy chora tadbirlarga ko'ra zuluklarni olishda spirt yoki yod eritmasidan foydalangan holda teri atrofiga tekkizib teridan tushurub olinadi. Zuluk qonga to'ygan vaqtda o'zi tushib ketadi. Bir marta ishlatilgan zuluklar xloramin eritmasi bilan o'ldirilib ko'mib tashlanadi. Zuluklarining tishlari izi tushgan joydan keyinchalik 1-24 soatgacha qon oqib chiqib turadi. Bir davolash seansiga 4-10-gacha zuluk qo'yiladi. Zuluklar yordamida ko'plab kasalliklarga qarshi qo'llanib kelingan: Jumladan

* Gipertonik kasalliklarda: qon bosimini ko'tarilishi, turli tromboflebitlar.

* Urologiya: prostatit, prostata adenomasi, siydik yo'li toshlari.

* Teri kasalliklarida: psoriaz, neyrodermit, ekzema, husun buzarlari.

* Kardiologiyada: Aterosekliroz, kardiiosekliroz.

* Ginikalogiyada: hayz tizimini buzilishi, bachodon miomasi, tuxumdonlarni yallig'lanishida kabi holatdagi kasalliklarada zuluk qo'yish tavsiya etiladi.

“Qo'llash mumkin bo'lmagan holatlar”. Qon ivishi tizimidagi muammolardan aziyat chekkanda, onkologik kasalliklarda, Gemofiliya, homlador ayollarda, uzoq muddatli va og'ir qon ketishlar, depressa, tashvish, surunkali charchoq holatlarda qo'llash mumkin emas.

Xulosa: Zuluklar keltirib chiqarishi mumkin bo'lgan zarar ularning oziqlanishi va o'ziga xos tuzulishiga bog'liq, shuning uchun quyidagi muammolar ehtimol mavjud.

1. Faol moddalar terining yuqori ta'sirlanishini chaqirish, ya'ni qizarish shunga o'xshash holatlar.

2. Zuluk sulagida qonni suyultiradigan fermentlar tufayli jarohat joyida bir muddat qon ketishi xolati ko'zatiladi.

3. Zulukning oshqozon-ichak traktida “kasal” qonni so'rishda zulukni infeksiyadan himoya qiladigan bakteriya mavjud. Bu bakteriyalar odamlarni zararlashi shilliq qavatlar kasalliklarni keltirib chiqarishi mumkun!

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

(1).”Амурская государственная медицинская академия”. О.М. Гонгарова, Е. В. Лобанова. 2016года.

(2) Гирудотерапия при болезнях системъ кровообращения В. А. Жернов. Ж. А. Кольятева. 2015года.